

**BUXORO TEATRI MISOLIDA O'ZBEK VA TOJIK TEATRLARI
O'RTASIDAGI IJODIY ALOQALAR SHAKLLANISHIDA HOMID
MAHMUDOVNING O'RNI**

G'aybulloyev Baxtishod

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi

*San'atshunoslik instituti "Teatr va xoreografiya" bo'limi
kichik ilmiy xodimi.*

Annotatsiya: *Maqolada Buxoro teatri misolida o'zbek va tojik teatrlari o'rtasidagi ijodiy aloqalarning shakllanishi tahlil etiladi. Tadqiqotda Buxoro teatrining bu jarayondagi o'rni hamda Homid Mahmudovning ikki xalq teatrini bog'lovchi shaxs sifatidagi faoliyati yoritilgan. U Buxoro sahnasida shakllangan tajribani Dushanbega olib o'tib, 1929-yilda Tojikistonning birinchi professional teatriga asos solgan. Shuningdek, maqolada XX asrda kechgan teatrlararo gastrollar, dramaturgiya almashinuvi va sahna uslublarning yaqinlashuvi madaniy hamkorlikning muhim omili sifatida tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Buxoro teatri, Homid Mahmudov, o'zbek teatri, tojik teatri, ijodiy hamkorlik, teatrlararo aloqalar, sahna madaniyati, dramaturgiya, gastrol, Markaziy Osiyo madaniyati.*

Abstract:: *The article analyzes the formation of creative ties between Uzbek and Tajik theaters through the example of the Bukhara Theater. The study highlights the role of the Bukhara Theater in this process, as well as the activities of Khomid Makhmudov as a figure who connected the theaters of the two nations. He transferred the stage experience gained in Bukhara to Dushanbe and, in 1929, founded the first professional theater in Tajikistan. The article also examines the intertheatrical tours, exchange of dramaturgy, and the convergence of stage styles in the 20th century as important factors in strengthening cultural cooperation.*

Keywords: *Bukhara Theater, Khomid Makhmudov, Uzbek theater, Tajik theater, creative cooperation, intertheatrical relations, stage culture, dramaturgy, tour, Central Asian culture.*

Markaziy Osiyoda qo'shni xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalar ko'p asrlik tarixiy ildizlarga ega bo'lib, ularda teatrlashgan tomosha, marosim va dostonchilik an'analari markaziy o'rin tutadi. Buxoro – mintaqaning yirik ilmiy-madaniy markazi sifatida – o'zbek va tojik teatr maktablari o'rtasida tabiiy "ko'priq" vazifasini bajargan: saroy va xalq tomoshalaridan tortib, jadidlar davri havaskor truppalari, sovet davrida professional sahna institutlari hamda mustaqillik yillaridagi ijodiy hamkorlik loyihalarigacha bo'lgan jarayonlar shu hududda uzluksiz davom etib kelmoqda.

O'zbek va tojik xalqlarining turmush tarzi, urf-odatlar, madaniyati va san'ati bir-biriga yaqin. Asrlar davomida juda ko'p o'zbek va tojik san'atkorlari bir-biriga ustoz, bir-biriga

shogird bo'lib ijod qilishgan. Barcha sohalar kabi, madaniyat va san'at yo'nalishlarida o'zaro tajriba almashish jarayonlari davom etib kelyapti.

Buxorodagi havaskorlar jamoasining vakili havaskorlikdan professional darajaga ko'tarilgan aktyor va rejissyor Homid Mahmudov 1924 yil Buxoro teatrining bir guruh aktyorlari bilan Moskvadagi Vaxtangov teatr qoshidagi o'zbek drama studiyasiga o'qishga borgan. "Homid Mahmudov 1927 yilda Moskvada Buxoro maorif uyi qoshidagi o'zbek teatr studiyasini tamomlagan"¹¹. Barcha bitiruvchilar qatori H.Mahmudov O'zbek milliy akademik drama teatri (Hamza teatri)da ish faoliyatini boshlaydi. Keyinchalik, H.Mahmudovni Tojikistonning poytaxti Dushanbeda birinchi professional tojik teatrini tashkil etish uchun taklif qilishgan. H.Mahmudov qiyinchiliklarga qaramay, 1929 yilda teatr uchun dastlabki truppani tuzadi. "1929 yil oktabr oyining o'rtalarida truppa tuzildi. Dastlab yetti kishidan iborat jamoa ikki aktyor, ikki aktrisa, ikki musiqachi hamda teatr direktori va tashkilotchisi H.Mahmudovdan iborat bo'lib, H.Mahmudov jamoaning rejissyori edi"¹². Teatr jamoasini kengaytirish uchun sanha san'atiga qiziqishi bor turli soha vakllari jalb qilinib, ishga qabul qilingan. 1929 yil 7 noyabrda birinchi Tojikiston davlat teatrining ochilish marosimi bo'lgan. Teatr 470 tomoshabin uchun mo'jallangan. Bu haqda N.Nurdjanov¹³ kitobida to'liq ma'lumotlar bilan birga teatrning ilk ijodidagi qiyinchiliklar, Buxoro, Samarqand va Toshkentdan olib kelingan pardozlash, dekoratsiya, liboslar hamda kamchiliklar to'liq yoritib berilgan. Teatrning rivojlanishi uchun H.Mahmudov 1930-1931 yillarda O'zbekiston milliy akademik drama teatri (Hamza teatri) aktrisasi Sofiya To'yboyeva, rejissyor Fathulla Umarov hamda Buxoro teatridan rassom Mirkarim Saidovlarni chaqirib olgan. Shu bilan tojik teatri sekin-astalik bilan rivojlana boshlagan. 1931-1934 yillar oralig'ida Xo'jand, Buxoro, Samarqand teatrlaridan bir guruh aktyor va aktrisalar tojik teatri jamoasiga kelib qo'shilganligi haqida teatrshunos olim N.Nurdjanov ma'lumot beradi.

Homid Mahmudovning faoliyati O'zbekiston va Tojikiston teatr san'atining tarixiy bog'liqligini amalda namoyon etgan yorqin misollardan biridir. U o'z faoliyati davomida Buxoro teatrida shakllangan an'anaviy sahna tajribasini yangi tashkil etilgan Tojikiston davlat teatriga olib o'tgan, shu orqali ikki xalq o'rtasidagi madaniy almashinuvga zamin yaratgan. Uning rejissyorlik qarashlari, sahna tashkilotidagi qat'iyligi va badiiy didi tojik teatrining estetik qiyofasini belgilashda muhim rol o'ynadi. Ayniqsa, H.Mahmudov jamoani birlashtirish, teatr madaniyatini shakllantirish va milliy ruhni sahna asarlarida ifodalash borasida katta tajriba maktabi yaratdi.

Dastlabki tojik spektakllarida Buxoro teatrining o'ziga xos belgilarini – xalq sahnasi an'analarini, musiqiy-dramatik uslubni, sahna harakati va mizansenlarda ifoda topgan badiiy uyg'unlikni ko'rish mumkin edi. H.Mahmudovning pedagogik faoliyati ham e'tiborga loyiq: u yosh aktyorlarni o'qitish, sahna nutqi, harakat madaniyati, obraz ustida

¹¹ Нурджанов Н. Тажикский театр. – Москва.: Искусство, 1968. – С. 35.

¹² Нурджанов Н. Тажикский театр. – Москва.: Искусство, 1968. – С. 35.

¹³ Нурджанов Н. Тажикский театр. – Москва.: Искусство, 1968. – С. 254.

ishlash kabi masalalarda Buxoro teatrida shakllangan tajribani to'liq joriy etgan. Shu jihatdan u nafaqat bir teatr rahbari, balki o'zbek-tojik teatrlararo maktabining asoschisi sifatida tarixda nom qoldirdi.

Buxoro teatridan Dushanbega ko'chgan bu ijodiy tajriba keyingi o'n yilliklarda ikki teatr o'rtasidagi hamkorlikning poydevorini mustahkamladi. Aynan H.Mahmudov asos solgan ijodiy yo'nalish tojik teatrining milliy shakl topishida, aktyorlik maktabining professional darajaga ko'tarilishida va sahna madaniyatining umumiy standartlari shakllanishida asosiy tayanch bo'ldi. Uning tashabbuslari natijasida O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi teatr aloqalari muntazam tus olib, gastrol, stajirovka va tajriba almashish shaklida davom etgan.

H.Mahmudov, ayrim sabablarga ko'ra, Buxoroga qaytishga majbur bo'lgan va rejissyorlik faoliyatini Buxoro teatrida davom ettirgan. 1937-1942 yillarda bu teatrdagi "Yoriltosh" (muallif SH.Sa'dulla, rassom A.Toll), "Zo'raki tabib" (1938 y., muallif Molyer, rassom L. Ushakov), "Tohir va Zuxra" (1940 y., muallif S.Abdulla, rassom V.Morgunov, dirijyor K.Gimnel), "Davron ota" (1942 y., mualliflar K.Yashin, S.Abdulla, rassom A.Engel-Raginskaya, dirijyor A.Ixtiyorov) kabi spektakllarni sahnalashtirgan. Ta'kidlash joizki, spektakllar turli janrlari bilan ajralib turadi.

Bu davrda H.Mahmudov ijodi ikki xalq teatr san'ati o'rtasidagi ijodiy aloqalarning uzviyligiga xizmat qildi. U Buxoro teatrida tojik aktyorlik maktabining ayrim usullarini joriy etgan bo'lsa, Dushanbeda esa o'zbek teatrining musiqiy, xalqona, ekspressiv sahna uslublarini ommalashtirgan edi. Shu jihatdan u ikki teatr madaniyatini bir-birini boyituvchi ijodiy tizim sifatida birlashtira olgan san'at arbobi bo'lib maydonga chiqdi.

Homid Mahmudov faoliyatining tarixiy ahamiyati shundaki, u o'zbek va tojik teatrlarining shakllanishida o'zaro ta'sir, tajriba almashinuvi va ijodiy sintez jarayonini amaliyotda asoslab bergan birinchi rejissyorlardan biridir. Uning mehnati natijasida Buxoro va Dushanbe sahnalari o'rtasida badiiy aloqalar yo'lga qo'yildi, teatrlar o'rtasidagi ijodiy do'stlik keyingi o'n yilliklarda ham davom etdi.

Shunday qilib, H.Mahmudov nafaqat o'z davrining iste'dodli rejissyori, balki Markaziy Osiyoda o'zbek va tojik teatr san'ati o'rtasida madaniy ko'pri yaratgan san'at namoyandasi sifatida tarixda o'chmas iz qoldirdi.

Shu davrlarda zamon og'ir bo'lgan, ko'plab taniqli madaniyat va adabiyot namoyandalari qatag'on qilingan, dramatik materialning etishmasligi teatr jamoasini qiyin ahvolga solib qo'ygan. Zamonaviylik haqidagi salmoqli original asarlarning yo'qligi, g'oyaviy-badiiy jihatdan zaif spektakllarning ko'rinishi jamoaning ijodiy kayfiyatiga, teatrning yanada rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Shunga qaramay, aynan shu davrda mumtoz sharq merosi asosida spektakllar yaratish ishlari boshlandi. Shunday qilib, Buxoro teatri repertuaridan "Tohir va Zuhra", "Alpomish", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Orzigul" sahna asarlari sahnalashtirilgan.

H.Mahmudovning birinchi yirik asari "Tohir va Zuhra" spektakli edi. S.Abdulla hamda bastakorlar T.Jalilov va G.Shperlingning 1940-yilda yaratilgan "Tohir va Zuhra" musiqali dramasi keyingi yilning o'zidayoq tomoshabinlarga namoyish etildi. Bu spektaklda o'zbek

xalqining qahramonlik va ishqiy an'analari aks etgan. Voqea "Toxir va Zuhra" qissasi asosida qurilgan bo'lib, unda bir tomondan muhabbat va vafo madhiyasi yangrab, yer yuzidagi go'zal g'oya yo'lida insonlarni buyuk ishlarga ruhlantirsa, ikkinchi tomondan zamonga moslashish, Sharq xalqlarining xon zulmi va zo'ravonligiga qarshi noroziligi. "Tohir va Zuhra" qahramonlari ongida oddiy xalq taqdiri ularning shaxsiy taqdiri bilan chambarchas bog'langan. Tohir va Zuhraoning muhabbati va fojiali o'limi xalqning bosmachilarga qarshi ozodlik kurashi fonida sodir bo'ladi.

Asarda asosan qahramonlik-romantik tamoyilni ochishga, insonparvarlik g'oyalarini ochishga emas, balki bu asarning ishqiy-lirik jihatlariga e'tibor qaratilgan. Bu ajoyib afsonaviy spektaklda xalq mumtoz musiqasiga sadoqat, qo'shiqchilikning milliy shakllari va xalq sahnasi xoreografiyasi saqlanib qolgan.

Rejissyor g'oyalari an'anaviy musiqali-dramatik spektakl ruhida amalga oshirildi. Xonanda o'z rolini bajarar ekan, voqea syujetga ko'ra sahnada davom etdi. Musiqa va qo'shiq sahnada sodir bo'layotgan voqealar bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi sababli, tomoshabin bir vaqtning o'zida harakatni kuzatish va musiqa va qo'shiq tinglash imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu komponentlar asarning alohida musiqiy va vokal qismlarini bir butunlikka birlashtirib, uni yangi mazmun va mazmun bilan to'ldirdi. Bunday yondashuv musiqali-dramatik spektaklda badiiy rejissyorlik masalalari butun asarning janri va uslubi bilan uzviy bog'liqlikda hal etilishini isbotlaydi. Keyichalik rejissyor ish faoliyatini o'zi tashkil qilgan teatr Abulqosim Lohutiy nomidagi Tojikiston davlat akademik drama teatri da davom ettiradi.

H.Mahmudovning asosiy maqsadi o'zbek va tojik teatrlari o'rtasidagi ijodiy hamkorlik bardavom bo'lishini xohlagan. Bu hamkorlik o'zbek va tojik teatrlari o'rtasida mustahkam bo'lgan. 1945 yilning iyul oyida A.Lohutiy nomidagi Tojikiston davlat akademik drama teatri jamoasi ilk gostrol safariga chiqib, o'z teatr pardasini Buxoro sahnasida ochgan. Teatr jamoasi A.Pirmuhammadzoda V.Volkenshteyning Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" dostoni asosida yozilgan "Rustam va Suxrob", Muhammadjon Qosimov va Saidmurodovlarning "Tahmosi xo'jandi", S.Ulug'zodaning "Kaltakdoron surx" (Qizil kaltakchilar), "O't ichida", V.Shekspirning "Otello", Urduboduning "Besh so'mlik kelin" sahna asarlari Buxoro tomoshabinlariga qo'yilganligi haqida "Buxoro haqiqati" gazetasida batafsil yozilgan. "Bu asarlarni ko'rgan tomoshabinlar teatrning ijodiy yo'li bilan ancha tanishdilar, teatr bu muvaffaqiyatlarga osonlik bilan erishgan emas. Teatrimizning ijodiy yuksalishida qardosh O'zbekiston Respublikasi katta yordam ko'rsatdi. Hozir aktyorlarimiz jamoasida ko'p ijodkorlar borki, ular bundan ilgari Buxoro va Samarqand teatrlarida ishlagan"¹⁴ – deb yozadi maqola muallifi Jalol Ikromiy. U sanab o'tgan aktyorlarning ko'chiligi uzoq yillar davomida tojik teatr sahnasida va kinosida bir-birini takrorlamaydigan obrazlar yaratishgan. 1945 yilda Tojik teatrining ilk gostroli tarixiy voqea bo'lib, aktyorlar xuddi o'zining teatr sahnasidek rollarni erkin ijro etishgan. Spektakllar kechki saot

¹⁴ Jalol Ikromiy. Tojik drama san'atining namoyishi // Buxoro haqiqati. – 1945 y. 30 iyun № 121 (2042).

to'qqizda bo'lsa ham teatr tomoshabinlar bilan to'lgan. Tomoshabinlar va Buxoro teatr jamoasi qo'yilgan spektakllarga munosib baho berishgan.

Tojikiston teatr jamoasi 1948 yilda ikkinchi gostrol safari ham Buxoro teatrida bo'lib, turli mavzu va janrdagi spektakllar namoyish etilgan. Ayniqsa, Buxoro tomoshabinlari uchun A.N.Ostrovskiyning "Sebsiz qiz" spektakli alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Bu asar o'tmishdagi rus xalqining hayoti bilan bog'liq masalalarni aks ettirib, insonga xos muhabbat, haqqoniyat uchun kurash, adolat istagan jamiyatni bo'g'ib kelayotgan o'sha davrdagi munofiqlik, insonlar bir-birini aldashi, nomusi va tuyg'ulari qadrsizlanishi spektaklda ochib berilgan. Larisa obrazini Tojikiston xalq artisti Sofiya To'yboyeva o'ynagan. Aktrisa ijrosida vijdonli rus qizining obrazi uning ichki ruhiy kechinmalari va fojiali holatlarini aniq va ravshan qilib ochib bergan"¹⁵. Larisa obrazi murakkab bo'lishiga qaramay, sevgilisi Paratov tomonidan muhabbati oyoq-osti qilinadigan sahnalarida aktrisa o'zining xatti-harakatlari, ichki tempo-ritmi bilan tomoshabinlarni lol qoldirgan. Asardagi Paratovning salbiy tomonlarini Tojikiston xalq artisti Muhammadjon Qosimov mahorat bilan ochib bergan. Uning muhabbat izhor qilish sahnasi tomoshabin uchun samimiy ko'rinsa-da, aktyor keyingi sahnalarda makkor va razil inson qiyofasini gavdalandirgan. Bu spektakl ustida ish olib borgan barcha aktyorlarning rollari o'z davrida tabiiyligi bilan ajralib turgan. Buxoro teatrining Tojikistondagi gastrollari turli yillarda bo'lib, tashrif oldidan tojik yoki o'zbek ko'chalarida afishalar osib qo'yilgan. 1959 yildagi ijodiy safarda teatr jamoasi "Hayot yo'llari", "Ravshan va Zulxumor", "Orzigul", "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Yulduz", "Singillar qissasi", "Tayfun" va konsert dasturlarini taqdim etishgan. Bunday gastrollar Buxoro va tojik teatri o'rtasida yangi imkoniyatlarni, rejissyor va aktyorlar o'rtasida ijodiy fikrlar almashinuvi uchun xizmat qilgan.

Har bir teatrdan turli millat vakillarining dramaturgiya namunalari azaldan sahnalashtirilib, bu an'ana hozirgi kunda ham saqlab qolingan bo'lib, asarlarning sahnaga ko'chishi teatr jamoasi uchun katta mahorat maktabi vazifasini o'tagan. Qardosh halqlar o'rtasidagi bu jarayonlar ijodiy hamkorlik va do'stlik aloqalarini mustahkamlashga xizmat qilgan.

Buxoro va tojik teatrlarining ijodiy hamkorligining yana bir xususiyati dramaturgiya namunalari ham namoyon bo'lgan. Tojik teatrlari o'zbek dramaturglarining pyesalarini va o'zbek teatrlarida ham tojik dramaturglarining asarlari sahnalashtirilgan. Tojik teatrlarida Hamzaning "Boy ila xizmatchi", K.Yashinning "Gulsara", "Ikki komunist", G'.Zafariyning "Halima", Xurshidning "Farhod va Shirin", S.Abdullaning "Tohir va Zuhra", Uyg'un va I.Sultonning "Alisher Navoiy", Tuyg'unning "Muhabbat" va ko'plab o'zbek asarlari sahnalashtirilgan.

Buxoro teatrida S.Ulug'zodaning "Gavhari shamchiroq", G'.Abdulloning "Sharqdan sado", S.Ayniyning "Doxunda", S.Jamolning "Guli siyoh", "Fotima sabri", J.Ikromiyning

¹⁵ Aminov A. Teatr – san'at mavzusida "Sebsiz qiz" // Buxoro haqiqati. – 1948 y. 28 iyul № 158

“Yulduzxon”, F.Toshmuhammedovning “Hofizning dostoni” kabi bir qancha tojik yozuvchilarining asarlari sahna yuzini ko'rgan.

Uzoq yillar davomida Buxoro va tojik teatri repetuaridan mustahkam o'rin olgan tojik dramaturgi S.G'anining “To'y” musiqali komediyasi uzoq yillar davomida qayta-qayta sahnalashtirilgan. Shu spektakl Buxoro teatri sahnasida ikki ijodiy jamaoning o'z talqinlarida tomoshabinlar hukmiga havola etilgan. Buxoro teatri 1961 yilning 7-8 dekabr qayta sahnalashtirilgan variatini namoyish etgan bo'lsa, tojik teatri 1961 yilning iyun oyidagi ijodiy safarida sahnaga olib chiqqan.

Buxoro teatri uch pardali musiqali komediyasida ma'lum bir ishxona rahbari Xolbo'tayevning xotini Saltanat, uning ishyoqmas, dangasa o'g'li Sulton, ayyor Xoshimlabbay, Latofat hamda sevgilisi Rustam, Holbo'tayevning jiyan Zebi obrazlari o'rtasida bo'ladigan ziddiyatlar tomoshabinlar uchun har doim qiziqarli bo'lgan. Xolbo'tayevning xotini Saltanat obrazi biror joyda ishlamaydigan, erini pulini sovira digan, yangi liboslar modasiga qiziqadigan, o'g'li Sultonning yomon ishlar qilishiga zamin yaratgan ayol timsolida gavdalanadi. Sulton obrazini A.Mahmudov restoran sahnasidan keyingi voqealarni tomoshabinlarga aniq ochib bergan. Ya'ni, restoranda ichib, ust-bosh kiyimlarini garovga qo'yib, mast holda uyga qaytsada onasi quchoq ochib kutib olar, garovga qo'yilgan kiyimlar uchun Zebi bilan pul yuborar, o'g'li uchun hamma narsaga tayyor ekanligi aktrisa bor kasbiy mahorati bilan o'z qahramonini ichki dunyosini ochib bergan. Spektakldagi Hoshimlabbay – H.Naimov, Hodipiyon – A.Fayziyev, Latofat – N.Ne'matova, Zebi – Z.Rahmonova, Rustam – R.Ergashev, Fotima xola – A.Olimovalar o'z obrazlarini ijro etib, mahoratlarini ko'rsatgan. Asar tarjimoni va spektakl rejissyori A.Akobirov bo'lgan.

S.G'anining “To'y” musiqali komediyasini tojik teatrida asli Buxorolik aktyor va rejissyor A.Burhonov sahnalashtirgan. Bu asar Buxoro teatri tomonidan ko'p marotaba sahnalashtirilganiga qaramay, qardosh xalqning ijrosi qiziqarli bo'lgan. “Tojik san'atkorlari jozibali kulguli hamda quvnoqlik bilan to'lib-toshgan bu komediyani o'zlariga xos iste'dod, o'zlariga xos koloridda namoyish etdilar”¹⁶. Asar qahramonlarini ichki dunyosi va murakkab xarakterlari tojik aktyorlari tomonidan to'la ochilib, rejissyor va dramaturgning g'oyaviy qarashlari tomoshabinlar qalbiga yetib borgan. Spektaklda obrazlarni Zebi – M.Shamsidinova, Fotima xola – S.Baqoyeva, Latofat – S.Jo'rayeva, Rustam – SH.Jo'rayev, Xodipiyon – M.Xalilov, Hoshimlabbay – A.Qosimov, Sulton – M.Hojiqulov, Saltanat – T.G'afforovalar kabi aktyorlar ijro etgan. Xolbo'tayevning o'z oilasiga, hayotga bo'lgan talabchanligi, uning turmushga yangicha ko'z bilan qarashlarini aktyor M.Tohiriy xatti-harakatlarida namoyon qila olgan. U xotini Saltanat va o'g'li Sultonning asl yuzini so'zlar bilan emas, kuchli aktyorlik mahorati bilan fosh qilib, tomoshabinni ishontirgan.

Spektakl ijodkorlari asarning asosiy g'oyasini milliy tojik koloriti va o'ziga xos urf-odatlarini mujassamlashtirgan holda ochib berishga harakat qilgan. Buning uchun aktyorlar

¹⁶ Murodjon Xalil. Iste'dod va haqqoniy kulgi // Buxoro haqiqati. – 1961 y. 20 iyun № 1842

monolog, diologlarda askiya va maqollar vositasida, jozibali va hajviy qo'shiqlardan unumli foydalangan.

Teatr jamoasi S.Ulug'zodaning "Ro'dakiy", F.Ansoriyning "Imtihon", SH.Qiyomov va Farxatning "Shtraf bir yarim tanga", SH.Qiyomov va A.Morozning "Sevganidan ayrilmasin" kabi spektakllar namoyish etilgan.

Tojik teatrining Buxoroga tashrifi bardavom bo'lib, 1966 yildagi ijodiy safarida G'.Abdullaning "Hurriyat", "Tog'lar qo'shig'i", F.Ansoriyning "Ona hukmi", K.Galdonining "Ikki boyga bir malay", E.Mirshakarning "Chegara yaqin joyda", M.Qosimovning "Donoga ishora, nodonga kaltak", Urdubodining "Besh so'mlik kelin", Sidqiyning "Xotin irodasi", A.Ostrovskiyning "Kambag'allik ayb emas", M.Ibrohimovning "Binafsha", Balzakning "O'gay ona", S.Ulug'zodaning "Ro'dakiy", Shillening "Makr va muhabbat", Nushchinning "Xudorahmatlik", 1975 yildagi tashrifida G'.Abdulloning "Ishq faryodi", H.Sodiqning "Kuyov tanlash", A.Gelmanning "Partkom yig'ilishi", A.Qahhorning "Ayajonlarim", F.Ansoriyning "Xatni men yozgan edim", 1978 yilda J.Ikromiyning "Doxunda", "Ona yuragi", G'.Abdullo, SH.Qiyomov va M.Rabiyevning "Sherlar jang maydonini tashlab ketadi", A.Usmonovning "Kurash", S.Ulug'zodaning "Ahmad Donish", G'.Abdulloning "Rustam va Suxrob" kabi ko'plab spektakllari namoyish etilgan.

XX asrning o'rtalariga kelib Buxoro va Tojikiston teatr jamoalari o'rtasidagi ijodiy aloqalar muntazam tus oldi. Bu davrda o'tkazilgan gastrol safarlari ikki xalqning madaniy hayotida alohida ahamiyat kasb etdi. Teatrlar o'rtasidagi bunday hamkorlik, avvalo, o'zaro tajriba almashinuvi, sahna uslublarining boyishi, aktyorlik va rejissyorlik maktablarining rivojlanishi uchun qulay ijodiy muhit yaratdi. Har bir gastrol ikki teatr jamoasi uchun yangi izlanishlar, tomoshabin didini o'rganish, milliy va umuminsiy qadriyatlarni uyg'unlashtirish imkoniyatini berdi.

Buxoro teatrida ko'plab yetuk aktyorlar avlodini tarbiyalab chiqargan maskandir. Mazkur teatr sahnasida aktyor sifatida tanilgan ko'plab ijodkorlar turli davrlarda Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi teatr jamoalari safiga qo'shilib, sahna san'ati ufqlarini kengaytirishga hissa qo'shishdi. Buxoro teatrida Homid Mahmudov, Asli Burhonov, Sofiya To'yboyeva, Gulchehra Baqoyeva, Shamsi Jo'rayev, Hojaquli Rahmatullayev, Boris Namatiyev, Abdurahmon Saidov, Fayzullo Ismatov, Latif Latipov, Aziza Azimova, Oqil Ziyoyev, rassom Mirkarim Saidov faoliyatini boshlagan. Bu aktyorlarning barchasi A.Lohutiy nomidagi Tojikiston davlat akademik drama teatrida ijodiy faoliyatlarini davom ettirgani ma'lum. Mazkur aktyorlarning ijodiy tajribalari o'zbek va tojik sahna san'ati tarixida alohida maktab mavqeyidadir.

O'zbek va tojik teatrlari o'rtasida tarixan shakllangan ijodiy munosabatlarni davom ettirish, yangi bosqichga ko'tarish har ikki millat san'ati rivoji uchun muhim ahamiyatga ega. Shu bois, bugungi zamonaviy teatrlar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish har ikki qardosh xalqlarning milliy va mushtarak madaniyati rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmonov M. O'zbek teatri tarixi. T., "Fan" nashriyoti, 1968.
2. Нурджанов Н. Таджикский театр. – Москва.: Искусство, 1968.
3. Jalol Ikromiy. Tojik drama san'atining namoyishi // Buxoro haqiqati. – 1945 y. 30 iyun № 121 (2042).
4. Aminov A. Teatr – san'at mavzusida "Sebsiz qiz" // Buxoro haqiqati. – 1948 y. 28 iyul № 158
5. Murodjon Xalil. Iste'dod va haqqoniy kulgi // Buxoro haqiqati. – 1961 y. 20 iyun № 1842
6. Qodirov M. O'zbek teatri an'analari.–T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'ati nashriyoti, 1976.